



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz

№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 264 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
Muxitdinova Nigora Mexriddinovna	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
Azerbayeva Elmira Muratbayevna	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
Niyazova Bibiniso Boltayevna	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi	



ESTETIK TARBIYA VA RUHIY GO'ZALLIK: SAN'AT VA ADABIYOTGA MUHABBAT ORQALI SHAXSDAGI BUZG'UNCHI XULQ- ATVORNING OLDINI OLISH

Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi

Alfraganus Universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Psixologiya (faoliyat turlari) yo'nalishi 4-bosqich talabasi



Ilmiy rahbar: Zamira Bilolova Baxtiyarovna

Alfraganus Universiteti Psixologiya kafedrası dotsent v.b.,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada estetik tarbiya va ruhiy go'zallik shaxs kamoloti hamda jamiyat barqarorligining asosi ekanligi yoritilgan. Shuningdek, san'at va adabiyotga bo'lgan muhabbat inson hissiyotlarini tarbiyalash, ulardagi buzg'unchi xulq-atvor, tajovuzkorlik hamda loqaydlik kabi salbiy illatlarning oldini olishda muhim profilaktik vosita bo'lib xizmat qilishi turli (psixologik, falsafiy, madaniy) yo'nalish nazariyalari va yondashuvlari orqali tahlil etilgan. Shu bilan birga, ilmiy yondashuvlarni o'rganish jarayonida falsafiy va psixologik jihatdan juda chuqur asosga ega ikki ulug' mutafakkir – Viktor Frankl va Fyodor Dostoyevskiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: estetik tarbiya, ruhiy go'zallik, san'at, adabiyot, buzg'unchi xulq-atvor, shaxs taraqqiyoti, ma'naviy dunyo-qarash, ma'naviy poklanish.

Abstract: This article emphasizes that aesthetic education and spiritual beauty form the foundation of personal development and social stability. Drawing on various theoretical approaches – psychological, philosophical, and cultural – it also analyzes how a love for art and literature serves as a vital preventive measure, fostering the development of the human emotional sphere and helping to avert negative manifestations such as destructive behavior, aggression, and apathy. Furthermore, the study examines the perspectives of two great thinkers – Viktor Frankl and Fyodor Dostoevsky – whose ideas rest upon a profound philosophical and psychological foundation.

Key words: aesthetic education, spiritual beauty, art, literature, destructive behavior, personal development, spiritual worldview, spiritual purification.

Аннотация: В данной статье подчеркивается, что эстетическое воспитание и духовная красота составляют основу личностного развития и общественной стабильности. Также анализируется – с опорой на различные теоретические подходы (психологический, философский и культурологический), – каким образом любовь к искусству и литературе служит важным средством профилактики, способствующим формированию эмоциональной сферы человека и предотвращению таких негативных проявлений, как деструктивное поведение, агрессия и апатия. Кроме того, в работе рассматриваются взгляды двух великих мыслителей – Виктора Франкла и Федора Достоевского, – чьи идеи опираются на глубокий философский и психологический фундамент.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, духовная красота, искусство, литература, деструктивное поведение, личностное развитие, духовное мировоззрение, духовное очищение.

KIRISH

Hozirgi sun'iy intellekt asri insoniyat sivilizatsiyasi tarixiga jadal axborotlashuv, texnologik inqilob va madaniyatlarning integratsiyalashuvi davri bo'lib kirdi. Biroq, texnologik taraqqiyot insonning moddiy hayotini yengillashtirgani bilan, uning ichki dunyosi, ruhiyatsizlanishi va ma'naviy qadriyatlari inqirozini butunlay hal qila olmadi. Aksincha, globallashuv sharoitida shaxsning begonalashuvi, o'zlikni anglash inqirozi va ekzistensial bo'shliq kabi jiddiy muammolar yuzaga keldi. Inson uzluksiz va nazoratsiz axborot oqimi qurshovida qolib, o'zining hissiy va emotsional ehtiyojlarini qondirishda muvozanatni yo'qotmoqda.



Mazkur jarayonlarning eng xavfli oqibatlaridan biri – yoshlar va umuman jamiyat a'zolari o'rtasida hissiy va estetik qashshoqlikning ortib borishidir. Estetik qashshoqlik deganda, shaxsning atrof-muhitdagi, tabiatdagi, insoniy munosabatlardagi go'zallikni his qila olmasligi, san'at va adabiyot asarlaridan emotsional zavq olish qobiliyatining pasayishi tushuniladi. Hissiy quruqlik insonni tashqi ta'sirlarga nisbatan ta'sirchan, ammo loqayd va agressiv qilib qo'yadi. Natijada, jamiyatda buzg'unchi xulq-atvorning turli shakllari ildiz ota boshlaydi.

Tarixan har qanday jamiyatning ma'naviy yuksalishi uning a'zolari qay darajada estetik tarbiyalanganligi bilan belgilangan. Bugungi kunda esa estetik tarbiya shunchaki madaniyatli bo'lish sharti emas, balki jamiyatning psixologik xavfsizligini ta'minlovchi, yoshlarni turli mafkuraviy va virtual tahdidlardan himoya qiluvchi strategik qalqondir. Shu sababli, shaxsda ruhiy go'zallikni shakllantirish orqali undagi buzg'unchi tendensiyalarning oldini olish muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarining markaziy masalalaridan biri sifatida ko'rilishi muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u estetika (go'zallik falsafasi), psixologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

San'at va adabiyotning shaxsni yomon illatlardan tozalash quvvati haqidagi dastlabki qarashlar antik davr falsafasiga borib taqaladi. Aristotel o'zining "Poetika" asarida tragediya san'atining inson ruhiyatiga ta'sirini tushuntirish uchun katarsis tushunchasini fanga kiritdi. Uning fikricha, san'at asari tomoshabinda qo'rquv va hamdardlik tuyg'ularini uyg'otish orqali uning ichki olamini salbiy va jo'shqin ehtirolardan xalos etadi. Antik davr falsafasidagi yana bir fundamental konsepsiya – kalokagatiya (kalos – go'zal, agathos – yaxshi) bo'lib, u tashqi estetik go'zallik va ichki axloqiy poklikning ajralmas birligini asoslaydi ^[1].

Shuningdek, go'zallikning inson ruhiyatiga ta'siri va go'zal narsalar insonni qanday qilib yaxshi tomonga o'zgartirishi haqidagi falsafiy yondashuvlarda Immanuel Kant "Estetika falsafasi" nomli asarida insonning estetik idroki va uning axloqiy his-tuyg'ular bilan bog'liqligi haqida fundamental qarashlarini, Lev Tolstoy "Hayotim" asarida san'at va hayot o'rtasidagi bog'liqlik, estetik zavq orqali ma'naviy poklanish haqidagi falsafiy mulohazalarini, Erich Fromm "Erishish san'ati" asarida go'zallik va sevgi nafaqat tuyg'u, balki madaniyatli inson bo'lish uchun talab qilinadigan "mahorat" ekanligini tushuntiradi.

Sharq mutafakkirlari ham san'at va adabiyotni buzg'unchilikning oldini oluvchi eng oliy vosita sifatida ko'rganlar. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida musiqaning inson temperamentini muvozanatlash, g'azabni so'ndirish va ruhiy xastaliklarni davolashdagi xususiyatlarini ilmiy asoslab bergan ^[2].

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy esa badiiy adabiyot va she'riyatni insonni hayvoniy tabiatdan yuksaltiruvchi, qalbni yumshatuvchi va unga yuksak empatiyani o'rgatuvchi asosiy mezon sifatida talqin etgan. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari insonning ichki go'zalligi, odobi va nafsni jilovlash yo'llari haqida diniy-estetik ta'lim beruvchi o'zbek adabiyoti durdonasidir ^[3].

San'at asarlari insonning ichki dunyosidagi "buzg'unchi" (negativ) elementlarni qanday qilib korreksiya qilishi haqida ham psixolog olimlarning ilmiy ishlari va yondashuvlari mavjud bo'lib, Viktor Frankl "Ma'no va maqsad izlab" asarida inson ruhiyati qiyin sharoitlarda ham san'at, ijod va ma'naviy qadriyatlar orqali qanday tiklanishi haqida psixologik tahlil qilgan ^[4].

Lev Vygotskiy – "Tasavvur va ijod" nomli kitobida san'atning inson psixikasidagi funksiyalari, ayniqsa, hissiyotlarni tartibga solish va insonni tarbiyalash mexanizmlari haqida ilmiy ishlari o'z aksini topgan ^[5], Carl Yung – "Arxetiplar va kollektiv ongsizlik" yondashuvidagi adabiy obrazlar va san'at ramzlari inson ichki "soyasi" (salbiy xususiyatlari) bilan kurashishda qanday rol o'ynashi haqida tushuncha beradi ^[6].

XIX–XX asrlarda g'arb falsafasida Fridrix Shiller o'zining "Insonning estetik tarbiyasi to'g'risida xatlar" asarida muhim g'oyani ilgari surdi: "Inson faqatgina estetik holatda bo'lgandagina to'laqonli erkin va bunyodkor shaxsga aylanadi, estetik tarbiya yetishmagan jamiyatda esa yovvoyilik va buzg'unchilik hukmron bo'ladi", – deb ta'kidlaydi ^[8].

So'nggi o'n yilliklarda san'atning inson xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish sifati yangi bosqichga ko'tarildi. Neyroestetika fanining asoschisi Semir Zeki bosh miya tomografiyasi (fMRI) yordamida inson go'zallikni idrok etganda miyaning prefrontal qobig'ida (mantiqiy va axloqiy qarorlar qabul qilish markazida) dofamin (huzurlanish gormoni) ajralishini isbotladi. Bu jarayon tajovuzkorlikni yuzaga keltiruvchi stress gormoni – kortizol miqdorini keskin kamaytiradi ^[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy asoslangan xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni qiyosiy taqqoslash va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda destruktiv xulq-atvor – bu shaxsning o'ziga, atrofdagi odamlarga, jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklariga zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari majmui sifatida ta'riflanadi. Psixologik nuqtayi nazardan, buzg'unchilik inson ichidagi agressiya, qoniqmaslik, qo'rquv va stressning tashqi dunyoga noto'g'ri yoki zararli shaklda yo'naltirilishidir. Zamonaviy dunyoda destruktiv xulq-atvor shakllari yanada murakkablashdi va yangi platformalarga ko'chdi.

Bugungi kunda uning quyidagi xavfli ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. **Tashqi agressiya va vandalizm:** Jamoat joylarida tartibni buzish, moddiy boyliklarni, tabiatni va madaniy yodgorliklarni atayin yakson qilish.
2. **Virtual destruktivlik:** Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarga nisbatan nafrat tilini ishlatish, psixologik bosim o'tkazish, shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi kontentlarni tarqatish va ulardan zavqlanish.
3. **Autodestruksiya (o'z-o'ziga zarar yetkazish):** Suitsidal tendensiyalar, depressiv holatlarga tushib qolish, zararli odatlarga (narkomaniya, alkoholizm, toksikomaniya) ruju qo'yish orqali o'z shaxsini jismonan va ruhan yemirib borish.
4. **Ma'naviy va ijtimoiy loqaydlik:** Atrofda sodir bo'layotgan adolatsizliklarga, insoniy fojialarga nisbatan mutlaqo hissiz bo'lish, emotsional empatiyaning (boshqalarning dardini his qilish qobiliyati) yo'qolishi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, buzg'unchi xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxslarning aksariyatida bolalik va o'smirlilik davrida tizimli estetik tajriba yetishmagan. Ular go'zallik nimaligini tasavvur qila olmaydilar va hayotga faqat pragmatik yoki utilitar, ya'ni moddiy manfaatdorlik nuqtayi nazardan yondashadilar. Ichki dunyosida "go'zallik ideali" bo'lmagan inson tashqi dunyoni osonlikcha vayron qila oladi.

Uzoq yillar davomida jamiyatda xulq-atvori og'ishgan yoshlar bilan ishlashda ma'muriy va huquqiy choralar, ya'ni taqiqlar, jazolar, nazoratni kuchaytirish tizimidan foydalanib kelindi. Shubhasiz, huquqiy mexanizmlar jamiyatda tartibni saqlash uchun zarur, biroq ular muammoning ildizini, ya'ni inson ruhiyatidagi ziddiyatni davolay olmas.

Taqiq faqatgina tashqi harakatni ma'lum muddatga cheklab turadi, ammo shaxs ichidagi agressiv energiya baribir saqlanib qolaveradi va u qulay imkoniyat tug'ilishi bilan boshqa bir buzg'unchi shaklda (masalan, yashirin virtual guruhlarda) yuzaga chiqadi.

Demak, muammoni tubdan hal etish uchun "tashqi bosim" strategiyasidan "ichki tarbiya" strategiyasiga o'tish lozim. Shaxs xulq-atvorini reabilitatsiya qilish va korreksiya qilish uchun uning ichki filtrlarini, emotsional qabul qilish tizimini o'zgartirish talab etiladi. Buning eng samarali va asrlar sinovidan o'tgan yo'li – estetik tarbiya tizimidir. Estetik tarbiya shaxsda subyektiv "ichki tormoz" vazifasini o'taydigan ruhiy go'zallikni tarbiyalaydi. Go'zallikka muhabbat uyg'ongan qalbda jinoyatga, shafqatsizlikka va vayronkorlikka nisbatan tabiiy ijtimoiy-ruhiy immunitet shakllanadi.

Estetik tarbiya – bu shaxsda voqelikdagi va san'atdagi go'zallikni idrok etish, to'g'ri baholash hamda hayotni go'zallik qonuniyatlari asosida qayta qurish (ijod qilish) qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayondir. Bu jarayon shunchaki muzeylarga borish yoki rasmlarni tomosha qilishdan iborat emas.

Bu – inson hissiyotlarining integratsiyalashuvi va oliy darajaga ko'tarilishidir.

Ruhiy go'zallik esa estetik tarbiyaning oliy mahsuli bo'lib, insonning ichki ma'naviy olami, axloqiy prinsiplari va estetik ideallarining uyg'unligidir. Ruhiy go'zallikka ega shaxs:

1. O'z his-tuyg'ularini boshqara oladi (emotsional intellekt);
2. Atrofdagilarga nisbatan yuksak empatiya namoyon etadi;
3. Hayotda vayronkorlikdan ko'ra ko'proq bunyodkorlikka, ijodkorlikka intiladi.

Falsafiy tushunchada "Go'zallik" va "Yaxshilik" hamisha egizak tushunchalar hisoblangan. Inson san'at yoki adabiyot orqali estetik zavq olganda, uning miyasida va ruhiyatida ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu go'zallik tuyg'usi uning ichki olamiga ko'chadi va ***ruhiy go'zallik***ka aylanadi. Ruhi go'zal inson esa tabiatan buzg'unchilik qilolmaydi, chunki bu uning ichki estetik qadriyatlariga zid keladi.

San'at va adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishning eng universal tilidir. Ular oddiy nutq yoki buyruq yetib bora olmaydigan inson psixikasining eng chuqur qatlamlariga (ong osti jarayonlariga) kirib boradi. Badiiy adabiyot orqali inson boshqa qahramonlarning hayotini yashab ko'radi, ularning xatolarini tahlil qiladi, fojialarini his qiladi. Bu esa yoshlarda emotsional tajribani boyitadi va ularni hayotdagi real qiyinchiliklarga ruhan tayyorlaydi.

Psixologiyada Aristoteldan boshlab to Zigmund Freyd va Karl Yunggacha bo'lgan olimlar san'atning katarsis, ya'ni ruhiy poklanish funksiyasini yuqori baholaganlar. Inson ichida to'planib qolgan salbiy energiya,



nafrat yoki tajovuzkorlik hissi kuchli drama asarini o'qiganda, tasviriy san'at namunasini tomosha qilganda yoki simfonik musiqani tinglaganda simvolik tarzda tashqariga chiqib ketadi (transformatsiya bo'ladi). Shaxs san'at asaridan ta'sirlanib yig'laganda yoki hayratlanganda, uning ichidagi destruktiv emotsiyalar erib, o'rnini estetik va ma'naviy xotirjamlik egallaydi^[7, 9].

Badiiy adabiyot empatiyani rivojlantiradi, dunyoqarashni kengaytiradi hamda ijtimoiy begonalashuv va loqaydlikni kamaytiradi.

Musiqas san'ati esa asab tizimini regulatsiya qiladi, garmoniya beradi hamda ichki agressiya, xavotir va xafagarchilikni so'ndiradi.

Shu qatorida tasviriy san'at esa ichki kechinmalarni ranglar orqali vizuallashtiradi hamda ranglar terapiyasi orqali depressiyani davolaydi.

Teatr va kino ham katarsis, ya'ni ruhiy poklanish holatini chaqiradi. Bu esa suitsidal tendensiyalar va apatiyani yengishga yordam beradi.

Inson xulq-atvorini boshqaradigan eng asosiy drayverlardan biri – bu uning emotsional interpretatsiyasi, ya'ni tashqi olamni qaysi hissiy prizma orqali qabul qilishidir. Tajovuzkorlik va loqaydlik ko'p hollarda emotsional soqovlik, ya'ni psixologiyada aleksitimiya deb ataluvchi holatning mahsulidir. Aleksitimiya chalingan shaxs o'z ichidagi g'azab, qo'rquv, xavotir kabi murakkab hissiy to'liqlarni so'z bilan ifodalab bera olmaydi, ularni farqlashga qiynaladi. Ichkarida qamalib qolgan va nomlanmagan bu energiya oxir-oqibat portlash nuqtasiga kelib, tashqi dunyoga nisbatan buzg'unchilik harakatlarida namoyon bo'ladi. San'at va adabiyot aynan mana shu nuqtada insonning hissiy apparatini "sozlovchi" universal laboratoriya vazifasini o'taydi. Badiiy asar o'qiyotgan yoki tasviriy san'at namunasini tahlil qilayotgan yosh yigit-qizlarda neyron darajada hissiy rezonans yuzaga keladi. Zamonaviy neyrobiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson chuqur ramziy ma'noga ega san'at asari bilan to'qnashganda, bosh miya yarim sharlaridagi emotsiyalar markazi va mantiqiy fikrlash markazi o'rtasida kuchli funksional aloqa o'rnatiladi.

Adabiyot insonga o'z hissiyotlarini "so'z bilan formatlash"ni o'rgatadi. Qahramonning iztirobini, pushaymonligini, sevgisini yoki nafratini matnda ko'rgan kitobxon o'zining ichki kechinmalarini ham identifikatsiya qila boshlaydi. Hissiyotning nomlanishi va anglanishi uning ustidan nazorat o'rnatishning birinchi qadamidir. O'z g'azabining tabiatini tushungan shaxs uni musht bilan emas, balki so'z, ohang yoki ranglar vositasida konstruktiv shaklda ifodalashga o'tadi. Shu tariqa, estetik tarbiya shaxsda destruktiv impulsni neytrallovchi neyropedagogik to'siqni yaratadi.

Zamonaviy sotsiologiya va psixologiyaning eng katta xavotiri – bu jamiyatda tanaffussiz o'sib borayotgan loqaydlik epidemiyasidir. Virtual olamdagi axborotlar mexanizatsiyalashuvi oqibatida insonlar boshqalarning jismoniy va ruhiy azoblariga nisbatan sezgirlikni yo'qotib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi fojialar shunchaki "kontent oqimi" sifatida qabul qilinib, "layk" va "repost" darajasiga tushirib qo'yildi. Bu hissiy sovuqlik va empatiyaning yetishmasligi yoshlarni boshqalarga ozor berishdan to'xtatib qoladigan axloqiy tormozlarni yo'q qilmoqda.

Badiiy adabiyot va teatr san'ati bu patologiyaga qarshi eng kuchli emotsional vaktsina hisoblanadi. Matn ustida ishlash jarayonida inson miyasidagi ko'zguli neyronlar faollashadi. Kitobxon Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy yoki Cho'lpon qahramonlarining kechinmalarini o'qiganda, uning miyasi ushbu azoblarni xuddi o'zining boshidan o'tayotgandek simulyatsiya qiladi. Bu "boshqasining o'rniga o'zini qo'yib ko'rish" mexanizmi shaxsdagi empatiya tuyg'usini sun'iy ravishda shakllantirmaydi, balki uni ichki zaruriyatga aylantiradi.

Psixologiyada "sublimatsiya" tushunchasi destruktiv xulq-atvor profilaktikasining poydevori hisoblanadi. Yoshlik davri inson organizmidagi gormonal va psixofizik o'zgarishlar tufayli tabiatan yuqori agressivlik potentsialiga ega bo'ladi. Bu energiyani shunchaki bosish yoki yo'q qilishning iloji yo'q, uni faqat to'g'ri kanalga burish mumkin. Musiqas va vizual san'at ana shu energiyani sublimatsiya qilishning eng mukammal yo'llaridir.

Musiqas san'atining inson asab tizimiga ta'siri uning matematik va akustik tabiatiga bog'liq. Tartibsiz va agressiv shovqinlar inson ruhiyatida xavotir va dushmanlik kayfiyatini uyg'otsa, garmonik tuzilishga ega musiqiy kompozitsiyalar miya to'liqlarini barqarorlashtiradi. Musiqas tinglash yoki biror cholg'u asbobini chalishni o'rganish jarayonida shaxs o'z ichidagi tartibsizlik va agressiyani ritm hamda ohangga bo'ysundiradi. Ichki xaos tashqi tartibga aylanadi.

Xuddi shunday, tasviriy san'at ham ichki agressiyani vizuallashtirish va korreksiyalash imkonini beradi. Ranglar arxitekturas va kompozitsiya yaratish jarayonida inson o'z qo'ruqlarini, g'azabini va jamiyatdan xafagarchiligini oq qog'ozga ko'chiradi.

Ranglar intensivligini o'zgartirish (masalan, to'q, qora ranglardan yorqin ranglarga o'tish) orqali shaxs o'z psixologik holatini subyektiv ravishda boshqaradi. San'at bilan shug'ullangan daqiqalarda tajovuzkorlik harakati ijodiy aktga aylanadi va o'zining vayronkorlik kuchini yo'qotadi.

Buzg'unchi xulq-atvorning chuqur ildizlaridan yana biri – bu yoshlar ongida yuzaga keladigan qadriyatlar bo'shlig'i va ekzistensial ma'nosizlikdir. An'anaviy qadriyatlar tizimi zaiflashgan va ommaviy madaniyat o'zining yuzaki andozalarini tiqib kelayotgan sharoitda, yoshlar "Hayotning ma'nosi nima?", "Men kimman?" degan



savollarga javob topishga qiynaladilar. Bu bo'shliqni ko'pincha radikal guruhlar g'oyalari, destruktiv submadaniyatlar yoki ekstremistik qarashlar o'zlarining soxta jozibadorligi bilan to'ldirishga harakat qiladi. San'at va adabiyot shaxs ongida estetik idealni shakllantirish orqali ushbu ma'naviy bo'shliqni to'ldiradi. Estetik ideal – bu inson intilishi kerak bo'lgan oliy ruhiy go'zallik, adolat, haqiqat va komillik mezonidir. Badiiy adabiyotdagi yuksak xarakterlar, tarixiy shaxslarning monumental obrazlari yoshlar uchun o'ziga xos axloqiy kompas vazifasini o'taydi. Inson san'atdagi haqiqiy va abadiy go'zallikni bir marta his qilsa, unda yuzaki, soxta va arzon g'oyalarga nisbatan estetik va intellektual nafrat uyg'onadi.

San'at va adabiyotning profilaktik kuchini faqatgina nazariy konsepsiya deb bo'lmaydi; u zamonaviy psixologik amaliyotda aniq texnologiyalar – biblioterapiya va art-terapiya ko'rinishida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ushbu metodlar og'ishgan xulq-atvorli yoshlarni ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiya qilishda va ularning ruhiy jarohatlarini davolashda yuqori samara beradi.

Biblioterapiya jarayonida mutaxassis shaxsning individual psixologik muammosidan kelib chiqib, unga ma'lum bir badiiy asarni o'qishni tavsiya qiladi. Kitobxon asar qahramoni bilan o'zini assotsiatsiya qiladi. Qahramonning inqirozdan chiqish yo'llari, uning ruhiy iztiroblari ustidan qozongan g'alabasi kitobxon uchun shaxsiy hayotiy strategiyaga aylanadi. Bu jarayon xulq-atvorni tuzatishning eng yumshoq, bilvosita va samarali usulidir, chunki bu yerda to'g'ridan-to'g'ri nasihatgo'ylik yoki bosim yo'q.

Art-terapiya esa shaxsga o'zining ongsiz ravishda yuzaga keladigan destruktiv qo'rquvlari va agressiyasini loy, ranglar, qum yoki teatr sahnalashtirishlari orqali tashqariga chiqarish imkonini beradi. Masalan, qum terapiyasi yoki loydan shakllar yasash jarayonida dushmanlik hissi jismoniy harakatga ko'chadi va loyni shakllantirish orqali inson o'z ichki dunyosini "qayta quradi". Bu amaliy san'at turlari va adabiyotga muhabbat shaxsni jinoyatchilik dunyosidan, ko'cha agressiyasidan va depressiv xavotirlardan uzoqlashtirib, hayotga ijodiy va gumanistik munosabatni tarbiyalaydi.

Shuningdek, maqola yozish va ilmiy yondashuvlarni o'rganish jarayonida falsafiy va psixologik jihatdan juda chuqur asosga ega ikki ulug' mutafakkir – Viktor Frankl va Fyodor Dostoyevskiy qarashlarini tahlil qilishga va taqqoslashga harakat qildik. Ularning asosiy umumiy falsafiy g'oyasida "Ma'naviy poklanish natijasida inson axloqiy me'yorlarga muvofiq, madaniyatli xulq-atvorga ega bo'ladi", deb qaralsa-da, bu jarayonni ikki xil, ammo bir-birini to'ldiruvchi nuqtayi nazardan tushuntirib berishadi [4, 11].

Fyodor Dostoyevskiyning asarlaridagi asosiy g'oya – "Azob orqali poklanish va vijdon uyg'onishi" bo'lib, ayniqsa, "Jinoyat va jazo"da ma'naviy poklanish ko'pincha ruhiy inqiroz va vijdon azobi orqali keladi, degan yondashuvga asoslanadi. Dostoyevskiy uchun buzg'unchi xulqning ildizi – insonning o'zini "hamma narsadan ustun" deb hisoblashi, axloqiy qonunlarni inkor etishidir. Poklanish mexanizmi esa inson o'zining xatosi va qilmishining og'irligini (vijdon azobini) his qilishi orqali "eski, buzilgan" menligidan voz kechadi. Natijada bu azob insonni kamtarlik va boshqalarga nisbatan mehrga yetaklaydi. Ya'ni, inson o'zining qorong'u tomonini tan olgach, haqiqiy axloqiy me'yorlarga qaytadi [11].

Viktor Franklning qarashlaridagi asosiy g'oya – "Ma'naviy maqsad orqali o'zini tiklash"dir. Frankl (logoterapiya asoschisi) poklanishni insonning hayotiy mazmun (ma'no) topishi bilan bog'laydi. Viktor Frankl qarashiga ko'ra, buzg'unchi xulqning ildizi – inson hayotda ma'no topa olmasa, "ma'naviy bo'shliq" (ekzistensial vakuum) holatiga tushadi. Bu bo'shliq insonni agressiya, alkoholizm, depressiya yoki boshqalarga nisbatan befarqlik (axloqsizlik) kabi buzg'unchi xulq-atvorlarga yetaklaydi, deb tushuntiriladi. Poklanish mexanizmida inson o'z hayotining, azobining yoki ijodining ma'nosini anglagan lahzada, u o'z egoizmidan chiqib, yuqori qadriyatlariga (sevgi, san'at, mas'uliyat) intila boshlaydi. Natijada ma'no topgan inson o'zini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. U nafaqat o'z manfaati, balki dunyoga bo'lgan mas'uliyati uchun ham yashaydi, bu esa uning xulq-atvorini madaniyatli va axloqiy qiladi [4] (1-jadval).

1-jadval: Viktor Frankl va Fyodor Dostoyevskiy yondashuvlarining solishtirma natijalari

Jarayon bosqichi	Dostoyevskiy modeli (Emotsional/Vijdoniy)	Frankl modeli (Kognitiv/Ma'naviy)
Muammo	Axloqsizlik. Vijdon azobi	Ma'nosizlik. Ruhiy bo'shliq
Poklanish yo'li	O'z xatosini tan olish va "O'zlik"ka qaytguncha azoblanish	Hayotda yuqori maqsad va ma'no topish
Natija	Ma'naviy qayta tug'ilish (Poklanish)	Ma'naviy yetuklik (Ma'no topish)
Umumiy natija	Axloqiy va madaniyatli xulq-atvor	Axloqiy va madaniyatli xulq-atvor

Xulosa qilib aytganda, Dostoyevskiy insonni "o'tmishdagi xatolaridan tozalash" (poklash) orqali axloqiy tomonga yo'naltirsa, Frankl insonni "kelajakdagi maqsadga intilish" (ma'no) orqali madaniyatli xulq-atvorga yetaklaydi. Ikkalasi ham insonning ichki "buzg'unchi" kuchlarini bartaraf etishning eng kuchli yo'li – ruhiy yuksalish ekanligini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvor, tajovuzkorlik va ijtimoiy loqaydlik kabi global ma'naviy inqirozlar shunchaki ijtimoiy muammo emas, balki inson ichki olamidagi hissiy-estetik qashshoqlik va emotsional soqovlikning to'g'ridan-to'g'ri oqibatidir. San'at va adabiyotga bo'lgan muhabbat inson ruhiyatini tashqi taqiqlar yoki huquqiy bosimlar kabi mexanik emas, balki ichki katarsis (ruhiy poklanish) va sublimatsiya (salbiy energiyani ijodiy kuchga aylantirish) mexanizmlari orqali tubdan sog'lomlashtiruvchi eng universal vositadir. Estetik tarbiya orqali shakllanadigan "ruhiy go'zallik" shaxs ongida mustahkam ma'naviy-intellektual filtrlarni yuzaga keltirib, destruktiv va radikal g'oyalarga qarshi quvvatli axloqiy immunitet vazifasini o'taydi. Zero, ruhiyatiga go'zallik andozalari o'rnashgan, atrof-muhit va inson dardiga nisbatan yuksak empatiya ega bo'lgan shaxs hech qachon vayronkorlik yo'lini tanlamaydi, aksincha, hayotga faqatgina bunyodkor va gumanist sifatida yondashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotel. Poetika. Toshkent: "Yangi asr avlodi", qayta nashr, 2017.
2. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti", 2018.
3. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. Toshkent: "Fan", 2020.
4. Viktor Frankl. "Man's Search for Meaning". New York: Beacon Press, 2019.
5. Лев Выготский. Воображение и творчество в детском возрасте. Москва: Издательство "Просвещение", 2021.
6. Jung, Carl. "Archetypes and the Collective Unconscious". New Jersey: Princeton University Press, 2017.
7. Юнг, К. Г. "Человек и его символы". Москва: "Серебряные нити", 2015.
8. Шиллер, Ф. "Письма об эстетическом воспитании человека". // Шиллер Ф. Собрание сочинений в 7 томах. Том 6. Москва: Гослитиздат (reprint), 2022.
9. Фрейд, З. "Художник и фантазирование". Москва: "Республика", 2016.
10. Zeki, Semir. "Splendors and Miseries of the Brain: Love, Creativity, and the Quest for Human Happiness". Wiley-Blackwell, 2023.
11. Dostoyevskiy, Fyodor. Jinoyat va jazo. Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2020-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.